



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “29” aprel

BUYRUQ № 64

Toshkent sh.

**Kichik korxona va mikrofirmalar tanlanma kuzatuvini tashkil
etish va o‘tkazish bo‘yicha uslubiy nizomni
tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman**:

1. Kichik korxona va mikrofirmalar tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 29- avgustdagi “Kichik korxona va mikrofirmalar tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 30-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 14- oktabrdagi “Kichik korxona va mikrofirmalar tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 40-son qarori.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov